

ONA TILI DARSLARIDA MATNLAR BILAN ISHLASH HAMDA TINISH BELGILARINING QO‘LLANILISH O‘RINLARI

Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O‘zga tili
 guruhlarida o‘zbek tili ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8053984>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida matn bilan ishlashish texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan bo‘lib, matnlarning o‘aro tahlil etilishida tinish belgilarining qo‘llanilish o‘rni va ifodaviyligi yuzasidan qarashlar o‘z ifodasini topgan. Ona tili darslarida ta‘lim ishini tashkil qilishning ma‘lum tarzda belgilangan norma va amallariga qat‘iy rioya qilish ahamiyatlidir. Shunga ko‘ra, ona tili darslarida matnlar bilan ishlashishning ahamiyati hamda ularda qo‘llaniluvchi tinish belgilarining qo‘llanilish o‘rinlari yuzasidan ham ham tushuntirish ishlari pedagoglar tominidan samarali tarzda amalga oshirishi lozim.

Kalit so‘zlar: Makro matn, mikro matn, punktuansion belgi, vergul, qo‘shtirnoq, nuqta, so‘roq belgisi

O‘quvchi-yoshlarning yozma matnlar ustida ishlash barobarida matn yaratishning tartib qoidalari yuzasidan maxsus belgilangan qonuniyatlarga rioya qilish lozimligini unutmaslik lozim. Matn ustida ishlashda uning hajm jihatdan katta yoki kichik matn bo‘lishi yuzasidan ham tahlil qilish, ulardagi ifodalangan g‘oya, mazmun-mohiyatga ko‘ra tinish belgilarining qo‘llanilishi ham maqsadga muvofiqlik darajasini tashkil etadi. Misol uchun atov gaplar yoki so‘z gaplarda nuqtaning ko‘p qo‘llanilishi, tasviriy ifodaviy matnlarda esa vergulning ko‘p qo‘llanilishi, muallif gapi va ko‘chirma gapni aks ettiruvchi matnlarda esa qo‘shtirnoqning ko‘p qo‘llanilishi kuzatiladi. “Yozuv tarixiga e‘tibor qaratilganda, dastlabki qo‘llangan tinish belgilari matndagi jummalarni ajratish, to‘xtash o‘rinlarini belgilash uchungina ishlatilgan. Ular “yozuvdan keyin paydo bo‘lgan va ijtimoiy vazifa ifodalagach, yozuvning tarkibiy qismiga aylangan. Eng qadimgi yozuvlar ko‘proq piktografik yoki logografik (alohida shakllar, belgilar orqali fikr ifodalash) shaklda bo‘lganligi sababli tinish belgilariga ehtiyoj sezilmagan”. Dastlabki tinish belgilari yozuv tarkibida semantik va grammatik funksiyalar bajarish uchun qo‘llanmas-da, lekin ma‘lum darajada jummalarning intonatsion sifatlarini o‘zida aks ettirgan. O‘z navbatida, tinish belgilarining og‘zaki nutqda namoyon bo‘lishi, albatta, ohang kabi murakkab prosodik hodisa bilan uzviy bog‘liq. Jahon tilshunosligida punktuatsion belgilarining shakllanish tarixi va evolyutsiyasiga nazar tashlanganda, dastlab tinish belgilarining prototiplari sifatida bo‘shliq (interval)lar tanlangan. Xususan, “qadimgi yunonlar antik davrda so‘zlarni bo‘shliqlar bilan ajratib, jummalarning boshini katta harf bilan yozishni qo‘llaganlar”.[1]

Shuni aytib o‘tish lozimki, ona tili o‘qitish darslarida o‘quvchilarning bilim salohiyatini oshirishning o‘ziga xos yo‘nalish va usullari mavjud bo‘lib, matnlar tarkibida ifodalanib kelgan, turli xil tinish belgilarining qo‘llanilishi, izohlanilishi ham ma‘lum bir vazifalarni bajarib kelmoqda. Maktab darsliklari tarkibida kelgan matnlar mashqlarning bajarilish shartlarini ham ifodalab kelmoqda. Darsliklarning mashqlari tarkibidagi matnlar adabiyot kitoblaridan va boshqa manbalardan ham olinishi bilan badiiylikni, ayrim holatlarda esa ilmiylikni o‘zida kasb etadi. Shunga ko‘ra, o‘quvchilarga to‘g‘ri bilim berish va ul;arning

samarali tarzda ifodalanishi tishish belgilarining tahlili bilan ham ajralib turadi. Misol uchun: kishilik jamiyatimizda uchrab turadigan diologlarda ifodalaniladigan savol va javoblarning umumiy yig'indisi ham ma'lum bir hajmga ega bo'lgan matnni tashkil etadi. Matnlarda qo'llanilgan tinish belgilarining ifodalanish o'rinlari ham ma'lum bir sabablarga qurilishi bilan xaarakterlanadi. So'roq belgisining gap oxirida qo'llanilishi yoki so'roq belgilarining ifodalanish o'rinlarini ifodalovchi so'zlar bilan izohlanganda hamso'roq belgisi qo'yilishi kuzatiladi.

“Vergul quyidagi holatlarda qo'yiladi:

1. Bog'lovchisiz yoki takrorlanuvchi bog'lovchilar yordamida aloqaga kirishgan uyusliq bo'laklar o'zaro vergul bilan ajratiladi:

Mana senga hayotbaxsh, zilol suvli buloq(F. Musajonov)

2. Ajratilganbo'laklar vergul bilan ajratiladi: soyda, qo'sh yong'oqning tagida oppoq qorga ko'milib uzoq turdi. (Odil Yoqubov)

3.Undalmalar vergul bilan ajratiladi. Ortiq aka, sizda otameros mardlik bor.

3.Tasdiq yoki inkorni bildiruvchi so'zlar gap boshida kelganda, vergul bilan ajratiladi. Ha, mayli, kerak bo'lsam, o'zi topib olar. (F. Musajonov) Qo'shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi: gap Hayot shunday tubsiz va behosil dengizlarkim, u doim jo'sh urib, qaynab turadi. (J. Abdullaxonov)".[2]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kishilikjamiyatimizda va kundalik hayotimizda amalga oshiriladigan nutqiy jarayonimizning umumlashma yig'indisi sifatida qaraluvchimatlar bilan ishlashish va ularni tahlil qilish yuzasidan punktuatsion tinish belgilarining ahamiyati katta. Tinish belgilar matnning g'oyaviy tasvir xususiyatidan ham kelib chiqib amalga oshirilishi ahamiyatga molik masalalardan biridir.

References:

1. Ishmurzayeva Lobarxon Anvarjon qizi. O'zbek tilshunosligida tinish belgilar. "O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman – 2022
2. Kurboniyozov Gulmirza, Jalilov Sadaddin. Amaliy o'zbek tili. Nukus "Nur-Turan-Print" 2023.